



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2020-yil yanvar-mart (dastlabki ma'lumot)



2020-yil yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2428,9 ming so'mni** (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan **22,1 %** ga o'sishni ta'minladi.



Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi (2020-yil yanvar-mart; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

	Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik	Xodimlar soni, kishi	Ish haqi fondi, mln.so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
Respublika bo'yicha - jami	3675	148 428	1 081 566,3	2 428,9
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	30	13 097	149 705,5	3 810,2
Qurilish	13	2 296	16 722,3	2 427,7
Savdo	15	2 230	12 914,3	1 930,4
Tashish va saqlash	12	8 413	90 511,8	3 586,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	13	43,0	1 102,6
Axborot va aloqa	40	457	3 158,4	2 303,7
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	88	3 036	43 205,6	4 743,7
Ta'lim	1594	68 549	425 317,8	2 068,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	84	25 399	150 631,8	1 976,9
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	156	2 428	13 589,6	1 865,7
Boshqa faoliyat turlari	1638	22 510	159 965,5	2 368,8

Ish haqi. 2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

Ta'lim sohasida 1594 ta muassasada 68549 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,2 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **425,3 mlrd. so'mni** (jami ish haqi fondidagi ulushi 39,9 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2068,2 ming so'mni** tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 23,8 % ga o'sdi.


Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020-yil yanvar-mart; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020-yil yanvar-mart; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **2652,7** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 128,3 %), Kegeyli tumanida **2161,9** ming so'mni (104,5 %) va Ellikqal'a tumanida **2124,5** ming so'mni (102,7 %) tashkil etgan bo'lsa, Qorao'zak tumanida **1627,8** ming so'mni (78,7 %), Taxtako'pir tumanida **1631,1** ming so'mni (78,9 %) va Mo'ynoq tumanida **1662,3** ming so'mni (80,4 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida **30** ta korxonada **13097** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 8,8 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **149,7** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 14,0 %ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3810,2** ming so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 8,2 %ga o'sdi.

Sanoat iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020-yil yanvar-mart; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **6461,0** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 169,6 %) tashkil etgan bo'lsa, Chimboy tumanida **1049,9** ming so'mni (27,6 %), Qonliko'l tumanida **1337,6** ming so'mni (35,1 %), Taxtako'pir tumanida **1376,8** ming so'mni (36,1 %) va Amudaryo tumanida **1453,6** ming so'mni (38,2 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida **84** ta muassasada **25399** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 17,1 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **150,6** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 14,1 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangano'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1976,9** ming so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 28,5 %ga o'sdi.

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(2020-yil yanvar-mart; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'niy o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Taxtakopir tumanida **2356,5** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 119,2 %), Nukus tumanida **2112,8** ming so'mni (106,9 %), Amudaryo tumanida **2104,1** ming so'mni (106,4 %) va Nukus shahrida **2097,4** ming so'mni (106,1 %) tashkil etgan bo'lsa, Taxiatosh tumanida **1430,5** ming so'mni (72,4 %), Beruniy tumanida **1537,3** ming so'mni (77,8 %) va Bo'zatov tumanida **1629,1** ming so'mni (82,4 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turida **88** ta muassasada **3036** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,0 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **43,2** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,1 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **4743,7** ming so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 45,5 % ga o'sdi


**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(2020-yil yanvar-mart; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)



Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **5368,5** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 113,2 %), Xo'jayli tumanida 4967,1 ming so'mni (104,7%) va Mo'ynoq tumanida 4917,1 ming so'mni (103,7%) tashkil etgan bo'lsa, Nukus tumanida **3385,4** ming so'mni (71,4 %), Taxiyatosh tumanida **3640,2** ming so'mni (76,7 %) va Qorao'zak tumanida **3826,5** ming so'mni (80,7 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning
mos davriga nisbatan o'sish sur'ati**


(2020-yil yanvar-mart; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, %da)



Respublika bo'yicha 2020-yil yanvar-mart oylarida 2019-yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida 45,5 %, tashish va saqlashda 36,5 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 28,5 % hamda ta'lim sohasida 23,8 % kuzatildi.



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2020-yil yanvar-mart; respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **3118,7** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **128,4 %**) va Qo'ng'iro't tumanida **2870,6** ming so'mni (**118,2%**) tashkil etgan bo'lsa, Taxtakópir tumanida **1707,5** ming so'mni (**70,3 %**), Bo'zatov tumanida **1785,0** ming so'mni (**73,5 %**), Qorao'zak tumanida **1814,9** ming so'mni (**74,7 %**) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2019-yildagi PQ-4555-sonli "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, joriy yilning 1 fevralidan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 679 330 so'mni tashkil etadi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha o'rtacha
oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(yanvar-mart; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

	2019-yil	2020-yil	O'sish sur'ati, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1989,7	2428,9	122,1
Nukus shahri	2480,0	3118,7	125,8
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	1568,1	1867,7	119,1
Beruniy	1569,3	1827,3	116,4
Bo'zatov	1699,3	1785,0	105,0
Qorao'zak	1501,2	1814,9	120,9
Kegeyli	1761,6	2067,5	117,4
Qo'ng'iro't	2227,0	2870,6	128,9
Qonliko'l	1818,6	1908,6	105,0
Mo'ynoq	2314,5	1875,9	81,1
Nukus	1694,1	2387,6	140,9
Taxiyatosh	1799,0	2270,8	126,2
Taxtako'pir	1663,7	1707,5	102,6
To'rtko'l	1690,1	2050,8	121,3
Xo'jayli	1745,8	2114,2	121,1
Chimboy	1601,1	2023,0	126,3
Shumanay	1600,7	1974,5	123,3
Ellikqal'a	1658,0	2111,8	127,4

Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasining
Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi

Tel: (71) 230-82-17, (61) 222-76-57